

**Azizbek KO'CHAROV,**

Kichik ilmiy xodim, O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

E-mail: azizbek.kucharov94@mail.ru

Tel: +998901247202

**Farxod YUSUPOV,**

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Texnika fanlar doktori, professor,

**Dilfuza NURIDDINOVA,**

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Erkin tadqiqotchi,

**Ra'no TOSHOBOBOEVA,**

O'qituvchi, Farmatsevtika ta'lif va tadqiqot instituti

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti doktoranti S. Q.Yusupov taqrizi asosida

## RESULTS OF SCIENTIFIC RESEARCH OF ADSORPTION KINETICS AND ADSORPTION ISOTHERMS IN THE PRODUCED IONITE

### Annotation

In this research work, first of all, brief information about adsorption isotherms in distilled water is given. Data on the results of correlation coefficients of Langmuir and Freundlich adsorption isotherms for  $\text{Ca}^{2+}$  and  $\text{Mg}^{2+}$  ions are presented. The effect of temperature change on the course of the modification reaction with sulfuric acid was also studied in the research work, and information was given on the rate of adsorption of  $\text{Ca}^{2+}$  and  $\text{Mg}^{2+}$  ions in pure water and how long it takes for the adsorption processes to reach equilibrium.

**Key words:** Water hardness, sulfocation, PVC, cation, adsorbent, technical water, metal ions, polymer substances.

## РЕЗУЛЬТАТЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ КИНЕТИКИ И ИЗОТЕРМ АДСОРБЦИИ В ПОЛУЧЕННОМ ИОНITE

### Аннотация

В данной исследовательской работе, прежде всего, даются краткие сведения об изотермах адсорбции в дистиллированной воде. Представлены данные по результатам определения коэффициентов корреляции изотерм адсорбции Ленгмюра и Фрейндлиха для ионов  $\text{Ca}^{2+}$  и  $\text{Mg}^{2+}$ . В исследовательской работе также было изучено влияние изменения температуры на ход реакции модификации серной кислотой и даны сведения о скорости адсорбции ионов  $\text{Ca}^{2+}$  и  $\text{Mg}^{2+}$  в чистой воде и о времени, в течение которого протекают процессы адсорбции, достичь равновесия.

**Ключевые слова:** Жесткость воды, сульфокатирование, ПВХ, катион, адсорбент, техническая вода, ионы металлов, полимерные вещества.

## ISHLAB CHIQILGAN IONITDAGI ADSORBSIYA KINETIKASI VA ADSORBSION IZOTERMALARING ILMIY TADQIQI NATIJALARI

### Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishida birinchi navbatda distirlangan suvdagi adsorbsion izotermalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun Lengmuir va Freyndlix adsorbsion izotermalarining korrelyatsiya koefitsientlari natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqod ishida haroratning o'zgarishi sulfat kislota bilan modifikatsiya reaktsiyasining borishiga ta'siri ham o'rGANilib,  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining toza suvda adsorbsiya tezligi juda yuqori va adsorbsiya jarayonlari qancha vaqt dan keyin muvozanatga kelishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Suvning qattiqligi, sulfokationit, PVX, kationit, adsorbent, texnik suv, metal ionlari, polimer moddalar.

**Kirish.** Suvdan oqilona foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ustuvor yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Suvga bo'lgan talabning tez o'sib borishi va suvning cheklanganligi shuningdek, suvni tozalash jarayonlari narxining oshishi suvni tozalash uchun yangi texnologiyalarni yaratish zaruratiga olib keladi. Sanoat oqava suvlarini tarkibidagi Mg va Ca ionlari suvning umumiy qattiqligini ko'rsatuvchi faktorlardan bo'lib, uning qayta ishlatalish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu sababli sanoat oqava suvlarini umumiy qattiqligini tushirish uchun maxalliy xomashyolar asosida kationitlar sintez qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunda stirol va divinilbenzol, polivinilxlorid, fenolformaldegid kabi polimer yoki sopolimerlarning sulfolangan birikmalari keng tarqaldi va qo'llanilmoxda. Kislota yoki asoslik darajasi bilan bir biridan farq qiladigan juda ko'plab ionitlar ma'lum. Sulfat kislota, oleum va xlorsulfokislota sulfonlarni hosil qilgani uchun bunday jarayonlarda qo'llanila olmaydi. Boshqa tomonдан sulfat angidridning dioksan [1], trioksan [2] yoki 3-dixlordietiloksid bilan aralashmasi sulfo kationitlarni hosil qilmaydi va suvda eruvchan birikmalar hosil qiladi [3]. Bu sulfolash xona haroratida yoki undan pastroq haroratda kompleksni polistirol bilan aralashtirish orqali amalga oshiriladi, sulfolangan polimer eritmada ajralib qoladi [4].

Sulfolash darajasini o'zgartirib 70 % dan to nazariy hisoblangan unumgacha har bir benzol halqasiga bittadan sulfoguruh biriktirilgan sulfokislota olindi. Past sulfolanish darajasida (10-20 %) suvda eruvchan birikmalar hosil bo'lishi va eritmada suvni bug'latib yuborgandan keyin ushbu birikmalardan suvda erimaydigan plynokalar hosil bo'lishi alohida qiziqish uyg'otadi [5]. Izog'ovakli makroto'rli stirol polimerining sulfolanishi nisbatan oson kechadi. Sulfat kislota bilan sulfolashda 80 °C haroratdayoq aromatik halqalarning almashinishiga olib keladi. 100 °C da hatto o'zaro bog'lanish darajasi 40-100 % bo'lgan

polimerlar ham almashinish sig'imi 4,5-4,7 mg-ekv/g bo'lgan sulfokationitlarga aylanadi [6]. Sulfolanishning oson borishi barcha aromatik halqalarining izog'ovakli makroto'rli polistirolda joylashganligidan dalolat beradi. Polimerga kiritilgan barcha sulfoguruuhlar o'z protonini tetrabutilammoniy ioni kabi katta hajmli guruhga almashtirishga qodir ekanligi ham xuddi shunday dalolat beradi. Taqqoslash uchun shuni ta'kidlash kerakki, odatiy kationitlar 10 % DVB saqlaganda sulfoguruuhlarning yarimi o'z protonini tetrabutilammoniyiga almashtira olmaydi. Ushbu reaksiyalarni amalga oshirish uchun PVX kukuni yoki PVX ning dixloroetandagi eritmasi ishlataladi [7].

Sanoatning turli sohalarida qo'llanuvchi sorbentlar qator talablarga javob berishi kerak, xususan turli metallarga nisbatan yuqori sorbsion sig'imiga ega bo'lishi, suvda erimasligi, kimyoviy barqaror bo'lishi, haroratning o'zgarishiga barqaror bo'lishi va arzon bo'lishi bilan birgalikda ko'p marta qayta ishlatish xususiyatiga, suvni tozalash jarayonida texnologik, ekologik va iqtisodiy talablarga mos kelishi kerak. Shuning uchun agressiv fizik-kimyoviy ta'sirlarga barqaror bo'lgan, yangi ion almashinuvchi ionitlar sintez qilish dolzARB masalalaridan biridir [8]. Shuning uchun olingan ionitning tarkibi va tuzilishi zamonaviy usullar yordamida o'rganildi. Sanoatda qo'llanuvchi ionitlarga turli xil talablar qo'yiladi shu talablardan eng asosiyalaridan biri bu termik va kimyoviy barqarorlik hisoblanadi [9].

**Materjal va metodlar.** Olingan KP-1 sulfokationitining sorbsion xossalarini aniqlash uchun  $\text{CaCl}_2$  va  $\text{MgCl}_2$  eritmalaridan metall ionlarining sorbsiyasi statik usulda o'rganildi. Ushbu tajribalar 0,025 dan 0,1 mol/l gacha bo'lgan konsentratsiyali kalsiy va magniy xloridning sun'iy eritmalarida 24 soat davomida o'tkazildi. 250 ml konussimon kolbaga 0,3 g quruq sorbent solindi va 100 ml turli konsentratsiyadagi  $\text{CaCl}_2$  yoki  $\text{MgCl}_2$  eritmasidan qo'shildi [10].


Solishtirma sorbsiya ( $\Delta X/m$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{\Delta X}{m} = \frac{(C_0 - C_\tau) \cdot V}{M \cdot m} \quad 1$$

Bu yerda:  $\Delta X$  – sorbsiyalangan ionlar miqdori; mol,  $m$  – sorbentning massasi, g;  $C_0$  va  $C_\tau$  – sorbsiyadan oldin va keyingi eritmalaridagi ionlarning konsentratsiyasi, g/l;  $V$  – eritma hajmi, l;  $M$  – ionlarning molekulyar massasi, g/mol.

Dastlabki va toza eritmadagi metall ionlari miqdori titrlash usuli bilan aniqlandi. Indikator sifatida erioxrom qora ishlataldi. EDTA bilan titplashda rang o'zgarishi yaqqol seziladi.

**Natijalar va ularning tahibili.** Distirlangan suvdagi adsorbsion izotermalar (1 rasm) 15-300 mmol/L konsentratsiya oralig'iда kuchli kislotali kationik KP-1da  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining adsorbsiyalanish xususiyatlarini aniqlashi mumkin. Ko'rinish turibdiki,  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun kuchli kislotali kation KP-1 ning adsorbsion qobiliyat 15 mmol/g dan 75 mmol/g konsentratsiyasiga gachaga keskin oshdi, shundan so'ng bu tendentsiya taxminan 3-4 mmol/g da barqaror bo'lib qoldi. Natijalarda maksimal adsorbsion qobiliyat  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari uchun 3,78 mmol/g va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun 3,74 mmol/g ekanligi ko'rsatilgan. Metall ionlarining adsorbsion konsentratsiyasining farqi shundaki,  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari  $\text{Mg}^{2+}$  ionlariga qaraganda ion radiusi yuqoriroq, shuning uchun  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari  $\text{Mg}^{2+}$  ionlariga qaraganda gidratlanish energiyasi yuqoriligi tufayli kationitga yutilish qobiliyatini ham yuqori bo'ladi. Ushbu natijalardan  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun katta adsorbsiya qobiliyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan.




1-rasm.  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining distirlangan suvda,  $q_e$  kationitda,  $C_e$  metall ionlarining konsentratsiyalarida adsorbsiya izotermalari.

1-rasmida ko'rsatilganidek, harorat ortishi bilan ionitga yutilgan kalsiy(II) va magniy(II) ionlarining miqdori oshib borgan. Chunki harorat ortishi, kationit va musbat metall ionlari o'rtaida ionlar harakati tezlashishi hisobiga ion almashish jarayoni yaxshilanadi. Muvozanat jarayonlarini tahlil qilish uchun adSorbsiya izotermalari eng muhim vosita hisoblanadi. Suyuq va qattiq sistemalarda muvozanat jarayonlarini ifodalash uchun eng keng qo'llanilgan va qulay bo'lганлари Lengmyur va Freyndlix modellaridir. Freyndlix izoterma tenglamasi yordamida turli – (ideal bo'lмаган) eritmalarda boradigan sorbsiya jarayonlarini o'rganish mumkin.

Toza suvdagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun Lengmuir va Freyndlix adsorbsion izotermalarining korrelyatsiya koeffitsientlari topilgan va 1-jadvalda keltirilgan. Bu natijalardan ajralib turadigan narsa shundaki, korrelyatsiya koeffitsientlari  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari uchun 0,997 va Lengmyur bo'yicha  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun 0,998 ga teng.

Lengmyur izotermasi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining kuchli kislotali kationli KP-1 ga distillangan suvdagi adsorbsiyasi uchun Freyndlix izotermalari bo'yicha  $\text{Ca}^{2+}$  va 0,674  $\text{Mg}^{2+}$  uchun 0,621 ga teng bo'lgan korrelyatsiya koeffitsientlariidan ko'ra eng mos ekanligini tasdiqlovchi izotermalar. Yana bir qiziq jihat shundaki, Risennen tanlangan maksimal adsorbsion qobiliyat  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari uchun 3,78 mmol/g va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun 3,74 mmol/g ni tashkil etdi.



2-rasm. Distrlangan suvda  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun (a) Lengmyur va (b) Freyndlix adsorbsion izotermalari, 5 g quruq modda, 50 ~ 300 mmol/l metall ionlarining dastlabki konsentratsiyalari.

1-jadval

PVX asosidagi sulfokationitga  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiyasida Lengmyur va Freyndlix konstanta qiymatlari.

Metal ionlari	Lengmyur izotermalari			Freyndlix izotermalari		
	b, g/mmol	q <sub>m</sub> , mmol/g	R <sup>2</sup>	k <sub>f</sub> , mmol/L	N	R <sup>2</sup>
$\text{Ca}^{2+}$	0.14	3.78	0.9 <sub>97</sub>	0.78	5.94	0.621
$\text{Mg}^{2+}$	0.18	3.74	0.9 <sub>98</sub>	0.81	6.52	0.674

Frendlix parametrlari qiymatlariga ko'ra mos ravishda  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari n=5,94 va 6.52 ga teng bu esa sulfokationitga metal ionlarining Sorbsiyasi yuqori darajada borganligidan dalolat beradi. Korrelatsion koeffitsientlari R<sup>2</sup> qiymatlari  $\text{Ca}^{2+}$  uchun 0,621 va  $\text{Mg}^{2+}$  uchun 0,674 ga teng va kontsentratsiya o'zgarishi adsorbsiya jarayoni Lengmyur monomolekulyar adsorbsiyasiga nazariyasiga bo'y sunishini ko'rsatadi.

Sorbsiya jarayoning mexanizmini (masalan kimyoiy Reaksiya tezligi, diffuziyani boshqarish va massa uzatilishini) aniqlashda kinetik modellardan foydalilanadi. So'nggi yillarda turli xil kinetik modellar psevdo birinchi tartibli, psevdo ikkinchi tartibli va boshqa bir qancha usullardan foydalanalmoqdi.

100 ml sintetik eritma va sanoat oqova suvlari turli vaqt oralig'ida (0 ~ 120 min) quritilgan kuchli kislotali kationiti KP-1 bilan davriy adsorbsiyaning kinetikasi o'tkazildi. Adsorbsiyadan oldin va keyin eritmalarida  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining miqdori atom-adsorbsion spektrofotometr (AAS-990) yordamida hisoblangan. Sintetik eritmalarini tayyorlash uchun  $\text{CaCl}_2$  va  $\text{MgCl}_2$  tuzlari ishlataligan. "Muborak GQIZ" MChJ sanoat chiqindi suvlari sinov uchun olingan.

Kuzatilgan adsorbsion kinetika ma'lumotlari psevdo birinchi tartibli va ikkinchi tartibli modellar yordamida hisoblab chiqilgan:

$$q_t = q_e(1 - e^{-k_1 t}) \quad (2)$$

$$q_t = \frac{k_2 q_e^2 t}{1 + k_2 q_e^2 t} \quad (3)$$

Bu erda  $q_e$  – kationitning adsorbsion qobiliyati (mmol/g),  $q_t$  – t vaqt ichidagi metall ionlarining adsorbsiyalangan miqdori,  $k_1$  va  $k_2$  – psevdo birinchi (min<sup>-1</sup>) va psevdo ikkinchi (g<sup>-1</sup>mmol/min) tartibli tezlik konstantasi.

Metall ionlarining kationitli sorbentida adsorbsiyalanish samaradorligini tavsiflovchi navbatdagi muhim ko'rsatkich adsorbsiya kinetikasidir. Tanlangan kuchli kislotali kationit SK-PVXning adsorbsion sig'imiда metall ionlarining adsorbsiyalanish jarayonini o'rganish maqsadida toza suvda va sanoat oqova suvlaringin eritmalarida  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining adsorbsiyalanish kinetikasi o'rganildi.  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun kuzatilgan natijalar 3.34-rasmida ko'rsatilgan. Ushbu rasmlarda kuzatilgan natijalarga mos kelish uchun psevdo birinchi tartibli modellar va psevdo ikkinchi tartibli modellar ishlataligan. Olingan korrelyatsiya koeffitsientlari 2 va 3-jadvallarda keltirilgan.

2-jadval

$\text{Ca}^{2+}$  ionining turli eritmalarida adsorbsion kinetikasi uchun psevdo-birinchi tartibli model va psevdo ikkinchi tartibli modelning korrelyatsiya koeffitsientlari


	Toza suv	Psevdo birinchi tartibli model			Psevdo ikkinchi tartibli model		
		R <sup>2</sup>	q <sub>e</sub>	k <sub>1</sub>	R <sup>2</sup>	q <sub>e</sub>	k <sub>2</sub>
Toza suv		0.997	3.76	2.2	0.985	3.79	2.8
Sanoat oqova suvi		0.984	2.52	0.7	0.974	2.45	7.7

3-jadval

$\text{Mg}^{2+}$  ionining turli eritmalarida adsorbsiyalanish kinetikasi uchun psevdo birinchi tartibli model va psevdo ikkinchi tartibli modelning korrelyatsiya koeffitsientlari

	Toza suv	Psevdo-birinchi-tartibli model			Psevdo-ikkinchi-tartibli model		
		R <sup>2</sup>	q <sub>e</sub>	k <sub>1</sub>	R <sup>2</sup>	q <sub>e</sub>	k <sub>2</sub>
Toza suv		0.994	3.69	1.8	0.981	3.73	2.4
Sanoat oqova suvi		0.974	2.35	0.5	0.976	2.44	6.5

3 a va 3 b rasmlar shuni ko'rsatadi,  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining sof suvda adsorbsiya tezligi juda yuqori va adsorbsiya jarayonlari 10 daqiqalik aloqadan keyin muvozanatga erishadi.



3-rasm.  $\text{Ca}^{2+}$  (a) va  $\text{Mg}^{2+}$  (b) ionlarining toza suv va sanoat chiqindi suvlari eritmasi adsorbsiya kinetikasi, 5 g quruq kationit metall ionlarining dastlabki konsentratsiyasi 0,25 mol / l

Sanoat chiqindi suvlarida  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining adsorbsiya tezligi sekin kechgan va ularning kationitdagи adsorbsiya jarayonlari 60 daqiqadan keyin muvozanat holatiga keldi. Adsorbsiya tezligi  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari uchun taxminan 3,76 mmol / g (psevdobirinchи tartibli model) va 3,79 mmol / g (psevdо ikkinchi tartibli model), shuningdek 3,69 mmol / g (birinchи tartibli model) va 3,73 mmol / g (psevdо ikkinchi tartibli model) mos ravishda toza suvdagi  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun stabillashgan. Biroq, sanoat oqova suvlarida bu qiymatlar asta-sekin kamayadi, chunki sanoat oqova suvlari adsorbsion jarayonlarga ta'sir qiladi. 3,6 va 3,7-jadvallardan ko'rinish turibdiki, korrelyatsiya koeffitsienti  $k_2$  ortdi va  $k_1$  kamaydi. Masalan,  $\text{Ca}^{2+}$  ionining adsorbsion tabiatи uchun  $k_2$  miqdori toza suvda va sanoat oqova suvlarida mos ravishda 2,8 va 7,7 g (mmol/min) ni tashkil etgan bo'lsa,  $\text{Ca}^{2+}$  ionining adsorbsion tabiatи uchun  $k_1$  miqdori 1,8 va 0 ga teng bo'lgan.  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari uchun natijalarga ko'ra,  $k_1$  va  $k_2$  tendentsiyalari  $\text{Ca}^{2+}$  uchun xuddi shunday tendentsiyaga ega. Bundan tashqari, sanoat chiqindi suvlarida tanlangan kationitning adsorbsion qobiliyati toza suvga qaraganda past ekanligini ko'rsatish mumkin. Ushbu natijalar tanlangan kationitning adsorbsion qibiliyati toza suvda ham, sanoat oqova suvlarida ham yuqori ekanligini isbotlandi.

**Xulosa.** Kuchli kislotali kationning sanoat chiqindi suvlardan magniy va kalsiy ionlarining adsorbsion muvozanati, kinetikasi, termodynamikasi va dinamik ajralishi o'rganilib, umumlashtirildi. Kuchli kislotali katyonit KP-1 kationiti 293-333 K harorat oraliq'ida magniy va kalsiy ionlarini sanoat oqova suvlardan samarali ravishda ajratadi. Dinamik ajratish kuzatuvi tanlangan kationitlar dinamik sharoitda magniy va kalsiy ionlarini toza suvdan va sanoat oqova suvlardan samarali ravishda ajratib olishini va 5 mol / l  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan osongina qayta tiklanishini tasdiqlandi. Olingan termodynamik parametrler o'rganilayotgan adsorbsiya endotermik ekanligini ko'rsatdi. Langmuir izotermasi natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan kationitning adsorbsion quvvati mos ravishda magniy va kalsiy ionlari uchun 3,78 mmol / g va 3,74 mmol / g ni tashkil etdi. Pseudo-birinchи tartibli model magniy va kalsiy ionlarining kationda adsorbsiyalanish kinetikasi uchun ko'proq mos keladi. Adsorbsion muvozanatga 10 daqiqalik aloqa vaqtida erishiladi. Tanlangan kationitning sorbsiya qobiliyati oqim tezeligining oshishi bilan o'zgarmasligi aniqlangan.

#### ADABIYOTLAR

- Куртукова Л.В. Исследования по очистке воды от солей жесткости с использованием новых минеральных сорбентов / Л.В. Куртукова, В.А. Сомин, Л.Ф. Комарова А.А.Боценко // Ползуновский вестник. - 2011. - №4-2, - С. 150-152.
- Пат. 2394628 Российская Федерация, МПК51 B01D39/14, B01J20/22. Способ получения сорбционно-ионообменного материала / Сомин В.А., Комарова Л.Ф., Кондратюк Е.В., Куртукова Л.В., Лебедев И.А.; патентообладатель Алтайский государственный технический университет им. И.И. Ползунова. - № 2009109670/15; заявл. 17.03.2009, опубл. 20.07.2010.
- Бекман, И.Н. Диагностика базальтовых волоконных адсорбентов / И.Н. Бекман // Вестник Московского университета. - 2003. - Т. 44. №5 - С. 342-351. 88. Собгайда Н.А. Методология очистки сточных во химические и нефтехимические отрасли промышленности фитосорбентами и модифицированными отходами агропромышленного комплекса: дисс. док. техн. наук: 03.02.08-05 / Собгайда Н. А. - Саратов, 2011. 304 с.
- ГОСТ 20255.2-89 Иониты. Методы определения динамической обменной емкости: Сб. ГОСТов. - М.: ИПК Издательство стандартов, 2002. - 16 с.
- Kucharov A. et al. Development of technology for water concentration of brown coal without use and use of red waste in this process as a raw material for colored glass in the glass industry //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 264. – С. 01050.
- Юсупов Ф. М. и др. Улучшение качества бурых углей марки 2бр-в2 и 2бомш-62 с помощью химической обработки //Universum: технические науки. – 2020. – №. 3-2 (72). – С. 43-46.
- Хурсандов Б. Ш., Кўчаров А. А. У., Юсупов Ф. М. Исследование свойств сернистого битума, полученного на основе модифицированной полимерной серы //Universum: технические науки. – 2022. – №. 12-6 (105). – С. 21-25.
- Юсупов, Фарход Махкамович, et al. "Свойства сферических гранул на основе оксида алюминия." Universum: химия и биология 3-1 (69) (2020): 59-63.
- Халилов С., Кўчаров А. Кўмир таркибидаги рангли ва кора металларни экологияга таъсирини илмий тадқики натижалари //Journal of Experimental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 8-12.
- Сайдмуродов Р., Юсупов Ф. Ишлатилган цеолитларни термик ишлаш орқали табиий газни куритиш жараёнига боғлиқлигини таҳлили натижалари //Journal of Experimental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 1-9.